

MUSTAQILLIK YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATI ICHKI ISHLAR IDORALARI XODIMLARINING KASBIY MAHORATI VA INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISHNING TARIXIY TAHLILI

Suvonov Jamshid Mashrab o'g'li

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

email: suvonovjamshid1993@gmail.com

UDK: 94(575.151):351.74"1991/2023"

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-2997-1312>

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyati ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy mahorati, jismoniy tayyorgarligi va intellektual salohiyatini oshirish borasida amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda arxiv materiallari va davriy matbuot ma'lumotlariga tayanilgan holda, kinologiya xizmati, kadrlar siyosatidagi yangi mezonlar, militsiya tayanch punktlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda xodimlarning ijtimoiy-tibbiy himoyasi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo, ichki ishlar idoralari, kasbiy mahorat, intellektual salohiyat, kinologiya, militsiya tayanch punkti, kadrlar siyosati.

Аннотация: В данной статье анализируются реформы, осуществленные в годы независимости по повышению профессионального мастерства, физической подготовки и интеллектуального потенциала сотрудников органов внутренних дел Сурхандарьинской области. На основе архивных материалов и данных периодической печати освещаются вопросы кинологической службы, новые критерии кадровой политики, укрепление материально-технической базы опорных пунктов милиции, а также вопросы социально-медицинской защиты сотрудников.

Ключевые слова: Сурхандарья, органы внутренних дел, профессиональное мастерство, интеллектуальный потенциал, кинология, опорный пункт милиции, кадровая политика.

Abstract: This article analyzes the reforms implemented during the years of independence to enhance the professional skills, physical training, and intellectual potential of internal

affairs officers in the Surxondaryo region. Based on archival materials and periodical press data, the study covers the development of cynological services, new criteria in personnel policy, strengthening the material and technical base of police stations, and issues of socio-medical protection for employees.

Keywords: Surxondaryo, internal affairs agencies, professional skills, intellectual potential, cynology, police station, personnel policy.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash borasida tub islohotlar amalga oshirildi. Mazkur jarayonning markazida turuvchi ichki ishlar idoralari xodimlarining nafaqat jismoniy va jangovar shayligi, balki ularning intellektual salohiyati va huquqiy bilimlarini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda.

Xususan, 2000-yillarning birinchi yarmida tizimni modernizatsiya qilish, kadrlarni tanlov asosida saralab olish va ularning ijtimoiy-tibbiy himoyasini kuchaytirish bo'yicha sezilarli natijalarga erishildi. Ushbu tadqiqotda Surxondaryo viloyati ichki ishlar idoralari misolida xodimlarning kasbiy mahoratini oshirish borasidagi amaliy chora-tadbirlar, kinologiya xizmatini rivojlantirish, militsiya tayanch punktlari faoliyati va kadrlar siyosatidagi yangilanishlar arxiv manbalari va davriy matbuot ma'lumotlari asosida tahlil qilinadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy tayyorgarligini muntazam oshirib borish, jismoniy va maxsus

bilimlarini amaliyotda sinovdan o'tkazish jamoatchilik osoyishtaligini ta'minlashda respublika miqyosidagi ko'pkurash musobaqalari xodimlarning professional mahoratini yuksaltirishda alohida o'rin tutgan.

Manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, 2006-yilning aprel oyida Namangan shahrida Respublika IIV Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi kinologiya xizmati xodimlarining navbatdagi ko'pkurash musobaqasi o'tkazilgan. Deyarli bir hafta davom etgan ushbu murosasiz bahslarda ichki ishlar xodimlari va ularning xizmat itlari uch yo'nalishda belgilangan maxsus shartlarni bajardilar.

Mazkur musobaqa Surxondaryo viloyati ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy mahorati va jismoniy salohiyatini namoyon etishda muhim bosqich bo'ldi. Musobaqaning yakuniy natijalariga ko'ra, umumjamo'a hisobida Surxondaryo viloyati vakillari (Samarqand viloyati vakillari bilan bir qatorda) faxrli ikkinchi o'rinni egallab, yuqori professional tayyorgarlikka ega ekanliklarini isbotladilar. Ta'kidlash joizki, ushbu ko'rsatkich viloyatda kinologiya xizmatini rivojlantirish va xodimlarning intellektual salohiyatini xizmat itlari bilan ishlash jarayonida to'g'ri yo'naltirish borasidagi sa'y-harakatlarning mahsulidir.

Shuningdek, tizimda xizmat sharoitlarini yaxshilash va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan bir qator viloyatlar qatorida Surxondaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi kinologiya xodimlari uchun ham yangi xizmat mashinalari ajratilganligi sohadagi islohotlarning amaliy ifodasi bo'ldi[1].

Surxondaryo viloyati ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish va intellektual salohiyatini mustahkamlash masalasi 2000-yillarning birinchi yarmida tizimli xarakterga ega bo'lib, xodimlarning nafaqat jangovar tayyorgarligi, balki ularning tibbiy-profilaktik bilimlari va ma'naviy-axloqiy darajasini yuksaltirishga qaratilgan kompleks tadbirlar bilan tavsiflanadi. Xususan, 2004-yilda O'zbekiston Respublikasi IIV Markaziy shifoxonasida Ichki qo'shinlar Bosh

boshqarmasiga qarashli harbiy qismlar tibbiyot xizmati boshliqlari uchun tashkil etilgan ikki kunlik uslubiy o'quv seminari soha xodimlarining tibbiy ta'minotini yaxshilashda muhim bosqich bo'ldi. Tadbirni IIV Ichki qo'shinlar Bosh boshqarmasi tibbiyot bo'limi boshlig'i, podpolkovnik T. To'rayev ochib berib, joriy yilda shaxsiy tarkib o'rtasida kasalliklarning oldini olish borasida yo'l qo'yilgan kamchiliklar va kelgusidagi vazifalarga to'xtalib o'tdi. Seminar davomida IIV Sanitariya-epidemiologiya nazorati Bosh markazi bo'lim boshlig'i, podpolkovnik R. Kunishev tomonidan xodimlarga harbiy qismlarda epidemiologiyaga qarshi kurashish va profilaktika choralarini tashkil etish bo'yicha atroflicha tushunchalar berildi. Mashg'ulotlar yakunida ishtirokchilar xizmat jarayonida qo'llaniladigan hujjatlar va kasalliklar profilaktikasi bo'yicha olingan bilimlari yuzasidan test sinovlarini topshirdilar[2].

Surxondaryo viloyati ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy malakasini oshirish va intellektual salohiyatini yuksaltirishda mintaqaviy hamkorlik hamda sohaga doir xalqaro huquqiy normalarni o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, 2005-yilning 10-fevralida Qarshi shahrida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari IIBlarining tergov boshqarmalari bo'lim, bo'linma va guruh boshliqlari ishtirokida o'tkazilgan mintaqaviy yig'ilish bu boradagi amaliy tadbirlarning muhim bo'lagi bo'ldi. Qashqadaryo viloyati IIB boshlig'i, polkovnik V.Xodjayev raisligida o'tgan ushbu tadbirda Surxondaryo viloyati IIB boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik X.Shernayev, shuningdek, Qashqadaryo viloyati IIB boshlig'i o'rinbosarlari podpolkovnik R.Zohirov, mayor A.Muzaffarov hamda polkovnik Yu.Xudoyberganovlar ishtirok etib, xodimlarning o'tgan 2004-yildagi faoliyati va joriy yildagi vazifalarini tahlil qildilar[3].

Yig'ilishda xodimlarning intellektual salohiyatini oshirishning asosi sifatida ularning huquqiy bilimlarini boyitish masalasi ko'rildi. Respublika IIV Tergov bosh boshqarmasi boshlig'i, polkovnik A.Sharafutdinov va boshqarmaning mas'ul xodimi, polkovnik

A.Sattorovlar o'z ma'ruzalarida xodimlarning "Huquqni muhofaza qilish idoralariga oid xalqaro hujjatlar to'plami"ga kiritilgan, O'zbekiston tomonidan tan olingan 75 ta xalqaro hujjat bo'yicha bilimlarini mustahkamlash zarurligini ta'kidladilar. Shuningdek, xodimlarning fuqarolar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, murojaatlar bilan ishlashda inson huquqlari va erkinliklarini tushuntira olish mahoratini shakllantirish hamda soha vakillarining kasbiy mas'uliyatini oshirish bo'yicha tizimli vazifalar belgilandi. Yakunda muhokama etilgan masalalar yuzasidan xodimlarning kasbiy mahoratini yanada yuksaltirishga xizmat qiluvchi tegishli qarorlar qabul qilindi[4].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqillik yillarida ichki ishlar idoralari xodimlarining jismoniy va intellektual salohiyatini oshirish maqsadida respublika bo'yicha 3414 tadan ortiq militsiya tayanch punktlari barpo etilib, ular zamonaviy kompyuter va aloqa vositalari bilan jihozlandi. Xodimlarning jismoniy chiniqishi uchun 2485 ta militsiya tayanch punktlari infratuzilmasida sport maydonchalari, jumladan futbol, basketbol, voleybol maydonlari, havzalar, trenajyor xonalari tashkil etildi. 2088 ta militsiya tayanch punktlarida mahalla yoshlari uchun turli yo'nalishdagi to'garaklar, 2054 tasida esa kichik biznes xonalari, tikuv-bichuv, duradgorlik va milliy hunarmandchilik ustaxonalari ochildi. Surxondaryo viloyatidagi tayanch punktlari ham ushbu infratuzilma bilan ta'minlanib, xodimlarning xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga xizmat qildi[5].

2005-yil 29 yanvar kuni O'zbek Milliy akademik drama teatrida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar va Xalq ta'limi vazirliklari, Respublika Oqsoqollar kengashi va "Mahalla" xayriya jamg'armasi, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi bilan hamkorlikda o'tkazilgan "Namunali militsiya tayanch punktlari" respublika tanlovining yakuniy bosqichi va g'oliblarni taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Shuni ta'kidlash joizki, bunday tanlovlar uch yildan beri 4 ta hudud bo'yicha muntazam ravishda o'tkazilgan. Tanlovlar "Jasorat ko'rsatgan profilaktika inspektori", "Aholi o'rtasida katta

obro'-e'tibor qozongan eng faol profilaktika inspektori", "Voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'yicha eng faol profilaktika inspektori", "Eng faol mahalla oqsoqoli", "Eng faol mahalla posboni", "Eng faol diniy ma'rifat va ma'naviy axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi", "Ichki ishlar idoralari xodimining eng sadoqatli ayoli" nominatsiyalari bo'yicha tashkil etilgan[6].

Tanlovda "Eng namunali militsiya tayanch punkti" nominatsiyasi bo'yicha to'rtta shartli hududning birinchisida g'oliblik Toshkent shahar Sobir Rahimov tumani "Eski shahar" mahallasidagi 190-militsiya tayanch punktiga berildi.

Tanlovning ikkinchi hududi, ya'ni Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari bo'yicha Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumanidagi 171-militsiya tayanch punkti g'olib deb topildi.

Uchinchi hudud, ya'ni Samarqand, Sirdaryo, Jizzax, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari o'rtasidagi bellashuvda g'oliblikni Sirdaryo viloyati Sirdaryo shahar "7-Haqiqat" mahallasida joylashgan 14-militsiya tayanch punkti qo'lga kiritdi.

To'rtinchi hudud, ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy va Xorazm viloyatlari bo'yicha Navoiy viloyatining Zarafshon shahridagi "Geolog" mahallasida joylashgan 21-militsiya tayanch punkti eng namunali deb topildi.

G'olib militsiya tayanch punktlari respublika Ichki ishlar vazirligi tomonidan ajratilgan "Damas" avtomashinasi bilan taqdirlandilar.

Mard o'g'lonning turmush o'rtog'i Zamira Bobojonova "Ichki ishlar idoralari xodimining eng sadoqatli ayoli" nominatsiyasi g'olibi bo'ldi. Shuningdek, Toshkent shahar Yakkasaroy tumani ichki ishlar boshqarmasida profilaktika inspektori bo'lib ishlagan Mansur Turg'unovning turmush o'rtog'i Zulayxo Samatova, Mirzo Ulug'bek tumani ichki ishlar boshqarmasida profilaktika inspektori bo'lib faoliyat ko'rsatgan Erkin Samatovning turmush o'rtog'i Adolat Jumayeva, shu tumanda profilaktika inspektori bo'lib ishlagan Muhiddin Amonovning turmush o'rtog'i Maqsuda Mingto'rayeva, Toshkent viloyati, Piskent tumani ichki ishlar bo'limida

profilaktika inspektori bo'lib xizmat qilgan Maxmud Abdullayevning turmush o'rtog'i Roxat Abdullayevalarga ham ana shu nominatsiya sovg'alari nasib etdi.

Ko'rik-tanlovning "Eng namunali militsiya tayanch punkti" nominatsiyasi bo'yicha o'rinlar quyidagicha taqsimlandi: ikkinchi o'rin Qashqadaryo viloyati Koson tumani, "Ravot" mahallasidagi 67-sonli, Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani Mirzo Ulug'bek nomli mahalladagi 239-sonli, Buxoro shahri Furqat nomli mahalladagi 26-militsiya tayanch punktlariga berildi. Uchinchi o'rinlarga esa Namangan viloyati, Namangan shahar "Qizilqupruq" mahallasidagi 61-sonli, Samarqand shahar, G'iyosiddin Jamshid nomli mahalladagi 49-sonli, Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy shahar, "Xorazm" mahallasidagi 3-militsiya tayanch punktlari sazovor bo'lishdi[7].

Bundan tashqari tanlovning "Jasorat ko'rsatgan profilaktika inspektori" nominatsiyasida Namangan viloyati, Yangiqo'rg'on tumani ichki ishlar bo'limi profilaktika inspektori Rustamjon Do'smatov, "Aholi o'rtasida katta obro'-e'tibor qozongan eng faol profilaktika inspektori" nominatsiyasida Buxoro shahar ichki ishlar bo'limi profilaktika inspektori Akrom Boboyev, "Voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'yicha eng faol profilaktika inspektori" nominatsiyasida Farg'ona viloyati, Buvayda tumani ichki ishlar bo'limi profilaktika inspektori Sardor Toshpo'latov, "Jinoyatchilikka qarshi kurashishda eng faol mahalla oqsoqoli" nominatsiyasida Jizzax shahar "Olmazor" mahalla fuqarolar yig'ini raisi G'ani Obidov, "Eng faol mahalla posboni" nominatsiyasida Toshkent viloyati Bo'ka tumanidagi "Qoraqo'yli" mahallasi posboni Salimjon Fozilov, "Eng faol diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi" nominatsiyasida Toshkent shahar Akmal Ikromov tumanidagi "O'rikzor" mahallasi maslahatchisi Ra'no Tursunxo'jayeva g'olib deb topildi. Shuningdek, tanlov yakuniga ko'ra xizmat faoliyatida ijobiy natijalarni qo'lga kiritgan bir guruh profilaktika inspektorlari rag'batlantiruvchi sovg'alar bilan

taqdirlandilar[8].

Surxondaryo viloyati ichki ishlar idoralari tizimida "kadrlar taqdirini kadrlar tanlash, joy-joyiga qo'yish va tarbiyalash hal qiladi" degan konseptual yondashuv asosida xodimlarning kasbiy mahoratini oshirishning yangi mexanizmlari joriy etildi. Xususan, kadrlarni tanlov asosida saralab olish imkoniyati yaratilishi natijasida safga faqat munosib, intiluvchan va shijoatli yoshlarni qabul qilish yo'lga qo'yildi, bu esa ayniqsa serjantlar tarkibini shakllantirishda o'zining ijobiy natijasini berdi. Xodimlarning kasbiy mahoratini oshirish bilan bir qatorda ularning moddiy va ma'naviy rag'batlantirilishi, yashash sharoitlarini yaxshilash, dam olish va salomatliklarini tiklash ishlari tizimli ravishda amalga oshirildi; xususan, faxriy va boquvchisini yo'qotgan oilalarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi.

Xodimlarning xizmat faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida moddiy-texnik baza tubdan yangilandi: Muzrabot tumani IIB uchun yangi ma'muriy bino, Sariosiyo tumani IIB uchun qo'shimcha bino qurib bitkazildi, Termiz shahar IIB binosi esa kapital ta'mirdan chiqarildi. Shu bilan birga, texnika va aloqa vositalari bilan ta'minlanish darajasi yaxshilanib, patrul-post, yo'l-patrul va kinologiya xizmatlari faoliyati tubdan qayta tashkil etildi. Viloyatning janubiy sarhadlarida tinchlik va osoyishtalikni saqlash maqsadida xodimlarning hushyorligi oshirilib, tuman markazlari, shaharcha va qishloqlarda profilaktika ishlari kuchaytirildi[9].

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari tizimida kadrlar salohiyatini yuksaltirish va xizmatga munosib nomzodlarni tanlab olish jarayoni 2000-yillarning o'rtalariga kelib yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Xususan, Surxondaryo viloyati va respublikaning boshqa hududlarida bu jarayon shaffoflik, adolat va qat'iy mezonlar asosida tashkil etildi. Ma'lumotlarga ko'ra, tizimga nomzodlarni saralashda nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki intellektual salohiyat va ma'naviy yetuklik birlamchi talab etib belgilandi.

O'rganilayotgan davrda nomzodlarning kasbiy mahoratini shakllantirish quyidagi faktik ko'rsatkichlar va tartib-taomillar orqali

amalga oshirilgan:

1. Jismoniy tayyorgarlik. Nomzodlarning jismoniy sog'lomligi va tashqi ko'rinishi qat'iy natsional va sohaviy standartlarga muvofiqlashtirildi. Bunda:

Bo'y o'lchami: Erkaklar uchun kamida 170 sm., ayollar uchun esa 165 sm. etib belgilandi. Maxsus bo'linmalar (masalan, yo'l-patrul xizmati) uchun esa bu ko'rsatkich 180 sm.dan kam bo'lmasligi talab etilgan.

Normativlar: Jismoniy chiniqishni tekshirishda erkaklar uchun turnikda tortilish (14 tadan yuqori "a'lo"), 100 metrga yugurish (13,5 soniyadan kam "a'lo") va 3000 metrga yugurish (12,01 daqiqadan kam "a'lo") kabi murakkab sinovlar o'rnatilgan. Ayollar uchun esa kompleks kuch ishlatish mashqlari va 1000 metrga yugurish (4,15 daqiqadan kam "a'lo") mezonlari qo'llanilgan.

2. Intellektual salohiyat. Xodimlarning intellektual darajasini aniqlash maqsadida jami 108 ta savoldan iborat kompleks test sinovlari joriy etilgan. Ushbu testlar uchta asosiy yo'nalishni qamrab olgan:

Umumta'lim fanlari: Dunyoqarash va umumiy bilimlarni aniqlash uchun 36 ta savol (har bir to'g'ri javob uchun 1,1 ball).

Ma'naviy-axloqiy va siyosiy tayyorgarlik: Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tushunish darajasini baholash uchun 36 ta savol (har bir to'g'ri javob uchun 2,1 ball).

Mantiqiy fikrlash va psixologik barqarorlik: Kasbiy layoqatni aniqlash uchun 36 ta savol (har bir to'g'ri javob uchun 3,1 ball).

Sinovlarning umumiy maksimal balli 226,8 ballni tashkil etgan bo'lib, bu tizim nomzodlarning tahliliy fikrlash qobiliyatiga berilayotgan yuqori e'tiborni ko'rsatadi.

3. Jamoatchilik nazorati. Surxondaryo viloyatida ham tanlov jarayonlari "Mahalla", "Kamolot" (hozirgi Yoshlar ittifoqi), "Nuroni" jamg'armalari, xotin-qizlar qo'mitalari vakillari hamda nomzodlarning ota-onalari ishtirokida ochiq-oshkora o'tkazilgan. Bu esa "tanish-bilishchilik" va "oshna-og'aynigarchilik" kabi salbiy holatlarning oldini olishda muhim ijtimoiy to'siq bo'lib xizmat qildi.

4. Kasbiy mahorat. Tanlovdan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar darhol

xizmatga jalb etilmay, uch oylik maxsus tayyorgarlik o'quv kurslariga yuborilgan. Ushbu kurslar davomida ularga huquqiy bilimlar, saf tayyorgarligi, jangovar va jismoniy mahorat sirlari o'rgatilgan. Ayniqsa, Serjantlar tarkibini tayyorlash va malakasini oshirish markazlarining faoliyati ushbu jarayonda hal qiluvchi rol o'ynagan[10].

2006-yil O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga Xitoy Xalq Respublikasining Favqulodda va Muxtor Elchisi Yuy Xunshun rahbarligidagi delegatsiya tashrif buyurib, tizimni modernizatsiya qilishga qaratilgan orgtexnika va aloqa vositalari majmuasini beg'araz tuhfa sifatida taqdim etgan. Ushbu delegatsiyani va taqdim etilgan texnik vositalarni O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining o'rinbosari, polkovnik H. Ibragimov qabul qilib olgan. Yangi avlod kompyuter va aloqa vositalari xodimlarning axborot bilan ishlash madaniyatini oshirib, jinoyatchilikka qarshi kurashda an'anaviy usullardan zamonaviy, tezkor-tahliliy usullarga o'tish imkonini berdi[11].

Ichki ishlar idoralari xodimlari sonining ortishi ularning salomatligini saqlash va jismoniy tayyorgarligini yuqori darajada ushlab turish masalasini kun tartibiga chiqardi. Taqdim etilgan manbalarga ko'ra, bu borada IIV Markaziy gospitali negizida amalga oshirilgan islohotlar Surxondaryo viloyati IIB xodimlari salohiyatini mustahkamlashda ham tayanch vazifasini o'tagan. 2000-yilda muassasa 402 bemorni qabul qilish quvvatiga ega bo'ldi. 2009-yilda soha xodimlarining intellektual va jismoniy quvvatini tiklash uchun quyidagi ixtisoslashgan bo'limlar xizmatidan keng foydalanildi:

- Xirurgiya va reanimatsiya: Umumiy jarrohlik, ko'z kasalliklari, urologiya, travmatologiya va neyroxirurgiya bo'limlarining faoliyati yo'lga qo'yildi.

- Diagnostika imkoniyatlari: MRT, kompyuter tomografiyasi, rentgenangiofiyografiya, endovaskulyar jarrohlik, exo-kardiografiya va EKG kabi zamonaviy usullar joriy etildi.

- Reabilitatsiya va fizioterapiya: 70 o'rinli statsionar hamda 150 qabulga

mo'ljallangan bo'limda sauna, suv osti massaji, tuzli vanna va igna bilan davolash usullari yo'lga qo'yildi. Bu infarkt va insult kasalliklaridan keyingi tiklanish jarayonlarida yuqori samara berdi[12].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Surxondaryo viloyati ichki ishlar idoralari misolida kasbiy mahorati va intellektual salohiyatini oshirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, ushbu davrda tizimni sifat jihatidan yangilashga qaratilgan kompleks yondashuv qaror topdi. Xususan, respublika miqyosidagi kinologiya va ko'pkurash

musobaqalarida viloyat jamoasining yuqori o'rinlarni egallashi professional tayyorgarlikning amaliy samarasini ko'rsatgan bo'lsa, kadrlarni saralashda jismoniy mezonlar bilan bir qatorda 226,8 ballik kompleks test sinovlarining joriy etilishi tizimga intellektual salohiyatli yoshlarning kelishiga xizmat qildi. Shu bilan birga, militsiya tayanch punktlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy aloqa vositalari va ijtimoiy infratuzilma obyektlari (sport maydonchalari, kutubxonalar) bilan ta'minlash orqali "mahalla – jinoyatchilikdan xoli hudud" tamoyili amalda mustahkamlandi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Kinologlar bahslashishdi // Postda gazetasi. – 2006-yil 29-aprel. – № 17 (3651).
2. Postda gazetasi. 2004-yil 18-noyabr. 47 (3575)-son.
3. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 125-ish, 10-varaq.
4. Mintaqaviy yig'ilish // "Postda" gazetasi – 2005. – 10-fevral. № 6-son (3587).
5. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 125-ish, 16-varaq.
6. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 125-ish, 19-varaq.
7. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 125-ish, 21-varaq.
8. Ichki ishlar idoralarining asosiy tayanchi. "Postda" gazetasi. 2005-yil 3-fevral. 5 (3586)-son.
9. Asrlarga teng yillar // Postda gazetasi. – 2006. – 29-iyul. – № 30 (3664).
10. Xizmatga munosiblar tanlab olindi // "Postda" gazetasi, 2006-yil 23-dekabr, №51 (3685)-son.
11. Xitoyliklar tuhfasini // "Postda" gazetasi. 2006-yil 12-avgust. – №32 (3666) -son.
12. Salomatlik yo'lida sobitqadamlik // "Postda" gazetasi. 2009-yil 31-oktyabr. 44 (3834)-son.